

Ertaklar - yaxshilikka yetaklar

OLGIN BALIQ



ZIYO NASHR

Qadim zamonda bir kambag' al chol bo'lgan ekan. Chol dengiz bo'yida yolg'iz o'g'li bilan yasharkan. Ular nihoyatda faqir bo'lib, qo'l kuchi bilan kun ko'rар ekanlar. Bisotlarida bir eski qayiq va baliq ovlaydigan to'rdan bo'lak hech vaqolari yo'q ekan. Cholning o'g'li doim ashula xirgoyi qilib yurar ekan. Bir kun baliqchi chol dengizga to'r solib, birozdan so'ng to'rni suvdan ko'taribdi. Qarasa, to'rga oltin baliq ilingan emish. Buni ko'rib chol hayron bo'libdi va o'g'liga:

– Bolam, sen bu ajoyib baliqqa qarab tur. Men borib bu hodisani xonga ma'lum qilay, – debdi-da, shaharga jo'nab ketibdi.





Yosh yigitcha baliqning to'rda qiynalayotganini ko'rib, rahmi ke-libdi, otasining kelishini ham kutmay, baliqni dengizga qo'yib yubo-ribdi. Oltin baliq dengizda suzib ketibdi. Xon oltin baliqni ko'rish uchun o'zining vazir-vuzarolari, posbonlari bilan yetib kelib, yigitga:

– Qani, ajoyib baliqni ko'rsat-chi! – debdi.

Yosh baliqchi boshini quyi solib, xonga:

– Baliqqa rahmim kelib, uni dengizga qo'yib yubordim, – debdi.

Xon baliqchi yigitdan bu so'zni eshitib, cholga:

– Sen yaramas chol, tutilmagan oltin baliq uchun meni shuncha ovora qilding. Dunyoda oltin baliq ham bo'larkanmi? – deya norozi bo'libdi.

Shunda keksa vazirlardan biri xonga qarab:


– Muhtaram hukmdor, men yuz yildan ortiq umr ko'rdim. Lekin bunday ajoyibotni eshitmaganman, – debdi.

Chol oltin baliq tutgani rost ekanini ishontirishga shuncha urinsa ham, xon uning so'ziga ishonmabdi.

Xonning jahli chiqib baliqchi yigitning qo'l-oyog'ini bog'lab, eski qayig'iga solib dengizga qo'yib yuborishni buyuribdi.

Xon as'asa-yu dabdaba bilan yana saroya qaytibdi. Boyoqish chol esa dengiz qirg'og'ida „voy bolam“, deb yig'lab qolaveribdi. Bir fursatdan so'ng qayiq ko'zdan g'oyib bo'libdi. Qayiqni kuzatib, ko'z-yoshlarini oqizib turgan chol zolim xonning zulmidan g'azablansa ham, ne qilarini bilmabdi.

Endi so'zni yosh baliqchidan eshititing. Baliqchi yigit har damda o'z halokatini kutar ekan. Lekin qayiq shamol kuchi bilan hamon olg'a qarab suzib ketaveribdi.




Qayiq bir kecha-yu bir kunduz suzgandan so'ng uzoqda bir orol ko'rinibdi. Kuchli shamol qayiqni o'sha orol tomon surib ketibdi. Qayiqning tumshug'i qirg'oqdagi qumga urilishi bilanoq, daraxt orqasidan bir yosh yigit chiqib kelibdi.

U yosh baliqchiga judayam o'xshar, go'yo bir olmaning ikki pallasi ekan.

Yosh yigit kela solib, baliqchining qo'l-oyoqlarini yechibdi. Yosh baliqchi bu mehribon yigitcha bilan quchoqlashib ko'rishibdi. Orolda uchragan yigitning kulcha nonini baham ko'rishibdi. Shunday qilib, ular orasida chin do'stlik boshlanibdi.

Bir kuni ular poda boqib yurgan bir cho'pon cholni ko'rib qolib uning huzuriga borishibdi. Do'stlar orolda o'zimizdan boshqa hech kim yo'q, deb o'ylagan ekan. Cho'pon ulardan hol-ahvol so'rab, so'z boshlabdi:

– Bu yerdan uch kunlik yo'lda katta bir xonning yurti bor. Xonning boshiga musibat tushgan. Uning go'zallikda tengi yo'q bo'lgan bitta-yu bitta qizi tug'ilganidan beri bir og'iz ham so'z aytgan emas. Xon bozorda:



– Kimki qizimni davolab, gapirtira olsa, men unga eng yaxshi in'omlar beraman. Bordi-yu, gapirtira olmasa, uning boshini tanasi-dan judo qilaman, – deb jar soldirgan. Ana o'shandan beri allaqan-chá navqiron yigitlarning boshi ketdi.

Do'stlar bu so'zlarni eshitib, baxtlarini sinab ko'rmoqchi bo'libdilar. Ular xon saroyiga borganlarida yigit baliqchi do'stiga qarab:

– Avval men baxtimni sinab ko'ray. Agar xon qizini davolay olsam, berilgan in'omlarni o'ttada bab-baravar bo'lishib olamiz, – debdi.


Yosh baliqchi ko'nibdi. Yigit esa xon saroyiga yo'l olibdi. Yigit haram eshigi oldida ikki kanizakni uchratibdi. Ulardan biri yigitga achinib:

– Ko'pgina sen tengi yigitlar xon qizini davolashga urinib ko'rdilar, lekin ularning aziz boshlari hisobsiz kalla suyaklaridan yasalgan minorani yana bir pog'ona yuqori ko'tardi. Seni ham shunday baxtsizlik kutadi, – debdi.

Jasur yigitni bu gap cho'chitolmabdi, u dadillik bilan haramga kiribdi.

Xon qizini ko'rishi bilanoq ta'zim qilib, so'z boshlabdi:

– E, go'zal malika! Biz uch o'g'ilmez. Bir kun chakalakzorga o'tin kesGANI bordik. Eng katta akamiz yog'ochni o'yib, bir go'zal qush yasadi. Qush shunaqangi ustalik bilan yasalgan ediki, xuddi tirik qushga o'xshardi. O'rtancha akam borib, eng nozik qushlarning patlari, parlaridan topib kelib, yog'och qushchani bezadi. Qush yanada go'zallashib ketdi. Men bir sehrli buloq topdim, qushni shu buloq suviga cho'miltirdim. Qushcha tirilib, sayrab yubordi. Har birimiz qushni „meniki“ deb da'vo qilamiz. O'shandan buyon o'rtamizdagI janjal davom etmoqda. Janjalimiz shunday zo'raydiki, asti qo'ya-vering. Ey, go'zal qiz, qush kimniki bo'ladi? Bizga xolis maslahat berasiz degan umidda edim.





Bu gaplarni eshitgan qiz qaddini ko'taribdi, qop-qora uzun kipriklarini pirpiratibdi. Chehrasi yorishib, jilmayibdi. Tovush chiqarmay, barmog'i bilan og'-zini ko'rsatib, boshini tebratib qo'yibdi.

– Modomiki, sen uchun men qurbon bo'lar ekanman, shuni yaxshi bilki, men bilan birga sen ham halok bo'lasan.



Yigit shunday degancha qizning boshi uzra qilich ko'taribdi. Qiz qo'rqqanidan, qattiq qichqirib yuborgan ekan, og'zidan bir oq ilon otilib chiqib ketibdi. Ilon buralib-buralib, vishillab, o'zini yigitning etigiga uribdi. Yigit ilonning boshini etik poshnasi bilan ezg'ilab tashlabdi.

Qiz yoshli ko'zlarini yigitga tikib, barmog'idan uzugini chiqarib:

– Bu uzukni olib, saroyga, otam oldiga boring. U sizni mukofotlaydi, – deya uzukni yigitga beribdi.

Yigit uzukni olib, do'stining oldiga kelibdi. Yosh baliqchi uni uzoqdan ko'rishi bilanoq yugurib kelib, uni bag'riga bosibdi.

So'ngra yigit bo'lgan voqeani do'stiga birma-bir so'zlab beribdi. U uzukni do'stiga uzata turib, shunday debdi:

– Endi senga bir sirni aytib beraman. Men – o'sha sen rahm qilib



qo'yib yuborgan oltin balig'ing-man. Qirg'oqda sen aytgan ashulalarning ta'rifi suvosti yurtiga ham yetib borgan. Ashulalaringni tinglash uchun dengiz qirg'og'iga ya-qinroq borib, ovozingga mahliyo bo'lib, to'rga tushganimni payqamay qoldim. Sen tufayligina tutqunlikdan xalos bo'ldim. Xon pos-bonlari qo'l-oyog'ingni bog'lab, qayiqda oqizib yuborganlarini ko'rgan edim. Seni qutqarish yo'lini izlab, eng yaqin do'stlarim bo'lgan baliqlardan bir qanchasini chaqirdim. Sening qayig'ingni suvga cho'ktirmasdan, yelkalari-da ko'tarib yurishlarini so'radim. Chin do'stlarim o'tinchimni bajo keltirib, seni shu orolga olib keldilar. Men bu yerda sening shaklingga kirdim. Shu qisqagina vaqt ichida sening sof-dil yigit ekanligingga yana bir bor ishondim, seni akamdek yaxshi ko'rib qoldim. Endi o'z joyimga – suv ostiga ketish vaqtি keldi. Bu uzukni olib borib, xonga ber. Mabodo kerak bo'lib qolsam, ko'k dengiz qirg'og'iga kelib, meni uch marta chaqir. Darhol xizmatingga yetib kelaman.

Shu so'zlardan so'ng baliq yigit bilan xayrlashibdi-da, ko'zdan g'oyib bo'libdi. Yosh baliqchi qadrdon do'stidan ajralib qolganiga qat-tiq qayg'uribdi va xon saroyiga yo'l olibdi.

Yigit xon saroyiga kelib, kirishga ruxsat so'rabdi. Biroq xon so'zidan qaytib, yigitni saroya kirimabdi.

Shundan so'ng yigitning dardi dunyosi qorong'i bo'lib, orqasiga qaytibdi va shahar chekkasidagi bir temirchiga shogird tushibdi.

Oradan bir hafta o'tgach, bu voqeadan xonning qizi xabar topib, zor-zor yig'lab, otasiga bunday debdi:

– Agar meni davolagan o'sha yigitga uzatmasangiz, shu bugunoq mendan ayrilasiz! – deb saroy ichidan o'tadigan katta anhorga o'zini tashlamoqchi bo'libdi.

Xon noiloj qolib qizini yosh baliqchiga beradigan bo'libdi.

Hamma odamlar to'yga aytilibdi.
Xizmatkorlar yosh baliqchiga sarpo
kiygizibdilar. Ertasiga to'y boshlanib,
nog'ora, karnay, surnaylar
chalinibdi.

Shunday qilib, yosh baliqchi xonga kuyov bo'libdi. Lenkin xon kuyovini juda yomon ko'rар, undan qutulish yo'llarini izlar ekan.

Bir kun yosh baliqchi xafa bo'lib o'tirgan ekan, malika undan nega xafa ekanini so'rabdi. Yigit shunday deb javob beribdi:





– Men bu hashamatli saroyda turolmayman. Yoshlik davrim dengizning narigi tomonida o'tgan. U yerda yolg'iz otam qolgan. Unga nima bo'lganini bilmayman. Agar men bilan birga ketishga rozi bo'lsang, o'zimni dunyoda eng baxtli yigit, deb hisoblar edim. Lekin mening yurtimda kambag'al bir baliqchi bilan yashay olarmikansan. Bu saroydagi bezaklar, kanizaklar u yerda yo'q.

Shunda malika turmush o'rtog'iga qarab:

– Men har narsaga tayyorman, siz sog'-salomat yursangiz bas. Faqat dengizning u tomoniga qanday o'tamiz! Bizda kema ham, kema yasaydigan usta ham yo'q, – debdi.

Yosh baliqchi:

– Buni o'ylamasang ham bo'ladi, hammasini o'zim to'g'irlayman. Agar ketmoqchi bo'lsang, yo'l tadorigini ko'raver, – debdi.

Shunday deb, yosh baliqchi ayolini uyga yuborib, o'zi dengiz bo'yiga borib, uch marta oltin baliqni chaqiribdi. Shu onda oltin baliq suv yuziga chiqib:

– E qadrdon do'stim, nima xizmat? – deb so'rabdi.


Yosh baliqchi:

– Yurtimni, otamni sog'indim. Dengizdan suzib o'tish uchun kema yo'q. Suzib kelgan qayig'im parcha-parcha bo'lib ketgan, nima qilalimni bilmay huzuringga keldim, – debdi.

Yosh baliqchidan bu so'zlarni eshitgan oltin baliq:

– Senga albatta yordam beraman. Kech kirganda senga kattakon bir baliq yuboraman. U og'zini ochishi bilan darrov og'ziga kiringlar. Ertalab uyingda bo'lasan, – debdi-yu, sho'ng'ib ketibdi.

Kech kirishi bilan dengizda to'lqin ko'tarilibdi, qirg'oqqa bahaybat bir baliq suzib kelibdi. Uning burnidan suv yuqoriga varillab otilib turar, dumini tinmay bilanglatar ekan.




Xonning qizi baliqni ko'rib juda qo'rqb ketibdi. Yosh baliqchi unga dalda berib, u baliqning og'zidan ichkari kiribdi. Baliq esa dengizda suzib ketibdi.

Baliqning tinchgina suzishi yosh baliqchi bilan turmush o'rtog'ini allalaganday bo'libdi. Ular uxbab qolishibdi. Ulkan baliq manzilga yetib, og'zini ochibdi. Shu payt baliqchi uyg'onib ketib, turmush o'rtog'ini darhol baliq og'zidan qirg'oqqa olib chiqib, uyga qarab yo'l olibdilar. Uyiga yetib borib, yarim vayronaga aylangan kulbasi va uning oldida munkayib o'tirgan keksa otasini ko'rgach, ko'zlaridan yosh chiqib ketibdi. Yigit otasi bilan quchoqlashib ko'rishibdi va uning oqarib ketgan soch-soqolini silabdi.

U otasiga kelinini tanishtiribdi, chol bu chiroyli kelinini ko'rib juda quvonibdi.

Shunday qilib, eski kulba o'rnida yangi imorat solib, uchovlari baxtli hayot kechira boshlabdilar.



E 83 **Oltin baliq.** [Matn]: ertak. / – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2022. – 16 b.

ISBN 978-9943-6829-3-1

UO‘K: 821.512.133-343.4
KBK 83.8

Ertaklar – yaxshilikka yetaklar

OLTIN BALIQ

Ertak

„Ziyo nashr“ nashriyoti
Toshkent – 2022

Muharrir
Badiiy muharrir
Musahhih
Sahifalovchi

Abdurahmon Jo‘rayev
Nasiba Ergasheva
Malika Kamolova
Surayyo Sunnatullayeva

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019
30.08.2022 da bosishga ruxsat etildi. Qog‘oz bichimi 84x108 1/₁₆.
Ofset qog‘ozi. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 0,10. Adadi 30 000. Shartnoma № 194–20
Buyurtma raqami

„Ziyo nashr“
Mas‘uliyati cheklangan jamiyat
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

Ertaklar - yaxshilikka yetaklar

OLTIN BALIQ



ZIYO NASHR



fb.com/zizo.nashr



zizonashr@mail.ru



YANGI
KITOBALARIMIZNI
INTERNET ORQALI
ONLAYN
XARID
QILISH UCHUN
QR-KODNI
SKANER QILING.

ISBN 978-9943-6829-3-1



9 789943 682931